



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



№7(2)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 104 sahifa,  
13-iyul, 2026-yil.*

## **BOSH MUHARRIR:**

**Karimova E'zoza Gapirjanovna** – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

**Ibragimov X.I.** – pedagogika fanlari doktori, akademik  
**Shoumarov G'.B.** – psixologiya fanlari doktori, akademik  
**Qirg'izboyev A.K.** – Tarix fanlari doktori, professor  
**Jamoldinova O.R.** – pedagogika fanlari doktori, professor  
**Sharipov Sh.S.** – pedagogika fanlari doktori, professor  
**Shermuhhammadov B.Sh.** – pedagogika fanlari doktori, professor  
**Ma'murov B.B.** – pedagogika fanlari doktori, professor  
**Madraximova F.R.** – pedagogika fanlari doktori, professor  
**Kalonov M.B.** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
**Nabiyev D.X.** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
**Qo'ldoshev Q. M.** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
**Ikramxanova F.I.** – filologiya fanlari doktori, professor  
**Ismagilova F.S.** – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
**Stoyuxina N.Yu.** – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
**Magauova A.S.** – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
**Rejep O'zyurek** – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
**Wookyu Cha** – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
**Polonnikov A.A.** – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
**Mizayeva F. O.** – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
**Baybayeva M.X.** – pedagogika fanlari doktori, professor  
**Muxsiyeva A.T.** – pedagogika fanlari doktori, professor  
**Aliyev B.** – falsafa fanlari doktori, professor  
**Abdullayeva N. Sh.** – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
**Doniyorov S. M.** – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**G'afurov D. O.** – falsafa fanlari doktori (PhD)  
**Shomurodov R.T.** – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
**Mirzayeva F. O.** – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
**Jalilova S.X.** – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
**Bafayev M.M.** – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Usmonova D.I.** – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
**Saifnazarov I.** – falsafa fanlari doktori, professor  
**Nematov Sh.E.** – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
**Tillashayxova X.A.** – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
**Yuldasheva F.I.** – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Yuldasheva D.B.** – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
**Tangriyev A. T.** – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
**Ashurov R. R.** – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Panjiyev M. A.** – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
**Xudayberganov N. A.** – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li** – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### EDITORIAL BOARD MEMBERS:

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Woosyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

|                                                                                                                                                                               |     |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Bolalik davridagi autizmning turli shakllarini differensial tashxislash .....                                                                                                 | 10  |
| <i>Saydaliyeva Xojiya Abduljalil qizi</i>                                                                                                                                     |     |
| Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishda<br>qo'llaniladigan korreksion ish tamoyillari .....                                    | 14  |
| <i>Karimova Zulfiya Abduraxmanovna, Saydaliyeva Xojiya Abduljalil qizi</i>                                                                                                    |     |
| Bo'lajak o'qituvchilarda axborot iste'mol madaniyatini rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari .....                                                                 | 19  |
| <i>Dadonova Aziza Tulkunovna</i>                                                                                                                                              |     |
| Ilk o'spirinlik yoshidagi o'quvchilarning o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini psixologik tahlili .....                                                                            | 23  |
| <i>Mamaradjabova Bog'zoda Abdilxakimovna, Panjiyeva Nargiza Botirovna</i>                                                                                                     |     |
| Oliy ta'lim tizimida muammoli o'qitish texnologiyasi .....                                                                                                                    | 30  |
| <i>Tuksanova Zilola Izatulloyevna</i>                                                                                                                                         |     |
| Shahar va qishloq yuqori sinf o'quvchilarida irodaviy sifatlarning qiyosiy tahlili .....                                                                                      | 35  |
| <i>Mamaradjabova Bog'zoda Abdilxakimovna, Panjiyeva Nargiza Botirovna</i>                                                                                                     |     |
| Organik kimyo ta'limida ochiq tipli STEAM loyihalarini loyihalashning didaktik modeli va<br>uni amaliyotga joriy etish metodikasi .....                                       | 41  |
| <i>Bo'riyev Rashidbek O'ktamjonovich</i>                                                                                                                                      |     |
| Kasbiy kompetentlikni oshirishda raqamli ta'lim vositalari va interaktiv metodlardan foydalanish .....                                                                        | 47  |
| <i>Fazildjanova Nilufar Xikmatdjanovna</i>                                                                                                                                    |     |
| Tadbirkorlik faoliyatini innovatsion va ta'lim ekotizimidagi roli .....                                                                                                       | 50  |
| <i>Mirzayeva Nigora Ibrohimjon qizi</i>                                                                                                                                       |     |
| Kasbiy ta'lim muassasalarida strategik boshqaruvni joriy etishning nazariy-metodologik asoslari .....                                                                         | 54  |
| <i>Qobilov Voxidjon Zoxidovich</i>                                                                                                                                            |     |
| Психологические факторы мотивации личности в обучении иностранному языку .....                                                                                                | 58  |
| <i>Мухамеджанова Римма Рашидовна</i>                                                                                                                                          |     |
| Jadid ma'rifatparvarlarining boshlang'ich ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarda kitobxonlik fazilatlarini<br>va madaniyatini shakllantirishdagi pedagogik tajribalari ..... | 66  |
| <i>Ahmadov Olimjon Shodmonovich, Fayzilova Mohinur Azamhon qizi</i>                                                                                                           |     |
| Talabalarda kelajakni strategik modellashtirish layoqatini rivojlantirish bo'yicha ilg'or xorijiy va<br>mahalliy tajribalarning qiyosiy-pedagogik tahlili .....               | 70  |
| <i>Sadriddinova Feruza Meliyevna</i>                                                                                                                                          |     |
| Bo'lajak pedagoglarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda fanlararo abstsessial va<br>ordinal bog'liqlikka asoslangan metodik ta'minotni takomillashtirish .....              | 75  |
| <i>Xudayberganov G'ayrat Quranboyevich</i>                                                                                                                                    |     |
| Maktablarda chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni isloh qilish: muammo va yechimlar .....                                                                              | 80  |
| <i>Qudratov O'ktam G'ofurovich</i>                                                                                                                                            |     |
| Ustoz-shogird tizimida raqamli vositalardan foydalanishning metodik asoslari .....                                                                                            | 85  |
| <i>Tursunov Xusniddin Isomovich</i>                                                                                                                                           |     |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda maktab va<br>oila hamkorligining pedagogik imkoniyatlari .....                                  | 88  |
| <i>Safarova Halovat Barnoyevna</i>                                                                                                                                            |     |
| Globallashtirish sharoitida tolerantlik madaniyatining nazariy-metodologik asoslari .....                                                                                     | 91  |
| <i>Yusupova Maftuna Ilxomiddin qizi, Qurbonova Zebiniso Mamarajab qizi</i>                                                                                                    |     |
| Adobe After Effects muhitida inersiyaviy davomiylik va ustma-ust harakatni avtomatlashtirishning<br>matematik modeli (Ziyoanim Overlap) .....                                 | 97  |
| <i>Hakimov Bahtiyorjon Muzaffar o'g'li</i>                                                                                                                                    |     |
| Tizimli yondashuv asosida talabalarning raqamli kompetensiyasini takomillashtirishning<br>uch komponentli konseptual modeli .....                                             | 101 |
| <i>Kulidjanova Yulduzxon Inomjon qizi</i>                                                                                                                                     |     |



# GLOBALLASHUV SHAROITIDA TOLERANTLIK MADANIYATINING NAZARIY- METODOLOGIK ASOSLARI

Yusupova Maftuna Ilxomiddin qizi

Termiz davlat pedagogika instituti  
Pedagogika nazariyasi va tarixi magistranti

Qurbonova Zebiniso Mamarajab qizi

Termiz davlat pedagogika instituti  
Pedagogika va ijtimoiy fanlar fakulteti  
"Pedagogika" kafedrası o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada globallashuv sharoitida 9-10-sinf o'quvchilarida tolerantlik madaniyatini shakllantirishning nazariy-pedagogik va metodologik asoslari tahlil qilingan. Tadqiqotning maqsadi - o'smirlik davridagi o'quvchilarning bag'rikenglik, millatlararo muloqot va madaniy xilma-xillikni hurmat qilish ko'nikmalarini rivojlantirish tizimini pedagogik jihatdan asoslashdan iborat. Ishda yuqori sinf o'quvchilarida tolerantlikni shakllantirishning zamonaviy interaktiv metodlari, keys-stadi va tarbiyaviy texnologiyalari yoritilgan. Olingan natijalar umumta'lim maktablarida ma'naviy-tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etish hamda "Tarbiya" fani darslarini takomillashtirishda metodik manba bo'lib xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** globallashuv, tolerantlik madaniyati, 9-10-sinf o'quvchilari, o'smirlik davri, pedagogik texnologiyalar, bag'rikenglik, ma'naviy-axloqiy tarbiya.

**Abstract:** This article analyzes the theoretical, pedagogical, and methodological foundations of developing a culture of tolerance among 9th-10th grade students in the context of globalization. The research aims to pedagogically substantiate the system for developing tolerance, interethnic communication, and respect for cultural diversity skills among adolescent students. The study highlights modern interactive methods, case studies, and educational technologies for fostering tolerance in high school students. The results obtained serve as a methodical resource for the effective organization of spiritual and educational work in secondary schools and the improvement of "Education" subject lessons.

**Key words:** Globalization, culture of tolerance, 9th-10th grade students, adolescence, pedagogical technologies, broad-mindedness, spiritual and moral education.

**Аннотация:** В данной статье анализируются теоретико-педагогические и методологические основы формирования культуры толерантности у учащихся 9-10 классов в условиях глобализации. Цель исследования - педагогическое обоснование системы развития у учащихся подросткового возраста навыков веротерпимости, межнационального общения и уважения к культурному разнообразию. В работе освещены современные интерактивные методы, кейс-стади и воспитательные технологии формирования толерантности у старшеклассников. Полученные результаты служат методическим источником для эффективной организации духовно-воспитательной работы в общеобразовательных школах и совершенствования уроков по предмету "Воспитание".

**Ключевые слова:** Глобализация, культура толерантности, учащиеся 9-10 классов, подростковый возраст, педагогические технологии, веротерпимость, духовно-нравственное воспитание.

## KIRISH

Ma'lumki, so'nggi yillarda globallashuv turli-tuman qarashlar asosida, deyarli barcha ijtimoiy hodisalar bilan bog'liq ravishda talqin etilayotgan muammolardan biriga aylandi. Shunday bo'lsa-da, murakkab va serqirra xarakterga ega ushbu fenomenning mohiyati xususida yaxlit ilmiy yondashuv, nuqtayi nazar shakllangan emas.

Eng avvalo, ushbu muammo xususida gap ketganda, shuni ta'kidlash joizki: "Globallashuv jarayoni hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelayotganining asosiy omili va sababi xususida gapirganda shuni obyektiv tan olish kerak - bugungi kunda har qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi nafaqat yaqin va uzoq qo'shnilar, balki jahon miqyosida boshqa mintaqa va hududlar bilan shunday chambarchas bog'lanib boryaptiki, biron mamlakatning bu jarayondan chetda turishi ijobiy natijalarga olib kelmasligini tushunish, anglash qiyin emas"<sup>1</sup>.

1 Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 111 b.

Tadqiqotlarning birida globallashtuvda siyosiy omilning o'rniga alohida e'tibor berilgan bo'lsa, boshqasida iqtisodiy jihatlar yoki demografik jarayonlarga urg'u berilganini ko'rish mumkin.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Globallashtuv sharoitida tolerantlik (bag'rikenglik) madaniyati - jamiyatda millatlar, dinlar va turli ijtimoiy qatlamlar o'rtasidagi tinchlik, hamjihatlikni ta'minlash hamda o'zaro hurmatni shakllantirishga xizmat qiluvchi muhim ijtimoiy-falsafiy mexanizm hisoblanadi. Uning nazariy-metodologik asoslari quyidagi konseptual yondashuvlarga tayanadi:

### 1. Tolerantlikning falsafiy va ijtimoiy-metodologik asoslari.

**Sivilizatsiyaviy yondashuv:** Har bir xalqning madaniy, diniy va tarixiy o'ziga xosligini tan olish, ularni G'arb yoki boshqa yirik sivilizatsiyalar ta'sirida transformatsiyalash jarayonida o'zaro uyg'unlikni saqlab qolish.

**Gumanistik konsepsiya:** Insonni oliy qadriyat deb bilish, uning e'tiqodi, fikri va dunyoqarashidan qat'i nazar, hurmat qilish.

### 2. Globallashtuvning tolerantlikka ta'siri (ziddiyatli omillar).

**Destruktiv ta'sirlar:** Globallashtuv jarayonida yoshlar ongiga "ommaviy madaniyat" niqobi ostida milliy qadriyatlarga yot g'oyalarning kirib kelishi va radikalizm xavfining ortishi.

**Konstruktiv ta'sirlar:** Turli millat va davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy-madaniy integratsiyani chuqurlashtirish, xalqaro muloqotni rivojlantirish va umumbashariy qadriyatlarni shakllantirish.

### 3. Tolerantlik madaniyatining tarkibiy qismlari.

**Madaniy identitetni saqlash:** Global integratsiyalashuv davrida milliy o'zlikni anglash, urf-odatlar va qadriyatlarga sodiq qolish.

**Madaniyatlararo muloqot:** O'zga madaniyatlarni qoralash yoki kamsitish emas, balki ularning xilma-xilligini qabul qilish va madaniyatlararo dialog o'rnatish.

**Huquqiy va institutsional asoslar:** Tolerantlikni shunchaki axloqiy tushuncha emas, balki qonun ustuvorligi va huquqiy davlat mexanizmlari orqali himoya qilish.

Diniy tolerantlik va bag'rikenglik tamoyillari.

Yoshlar ma'naviyatini ommaviy madaniyatdan himoya qilish.

O'zbekistondagi millatlararo totuvlik siyosati.

Bizningcha, globallashtuv obyektiv ravishda jamiyat hayotining qanday sohasida namoyon bo'lishidan qat'i nazar, ushbu jarayonning teng huquqlilik, o'zaro hurmat va manfaatdorlikka tayangan holda kechishini ta'minlashga intilish zarurligi, bunda subyektiv omillar katta o'rin tutishi haqidagi fikr e'tiborga molik.<sup>2</sup>

Ayni paytda, respublikamiz olimlari tomonidan globallashtuvning mazmun-mohiyatini oydinlashtirishga qaratilgan fikr-mulohazalar rivojlanib bormoqda. Chunonchi, adabiyotlarda hozirgi davrda xalqaro makonda ko'p tarmoqli integratsiya, hamkorlik aloqalarining chuqurlashib, kengayib borishi, global ahamiyatga molik yangi umuminsoniy g'oyalarning paydo bo'lishi va ularni targ'ibot-tashviqot qilish texnologiyalarining takomillashuvi kabi omillar globallashtuvning asosiy sabablari sifatida nazariy jihatdan asoslanmoqda.<sup>3</sup>

Bir qator mutaxassislar asosli ravishda globallashtuv fenomenining salbiy jihatlarini xarakterlovchi asosiy omil sifatida ommaviy madaniyat elementlarining keng tarqalib borayotganini ko'rsatadilar. Ularning nuqtai nazariga ko'ra, globallashtuv sharoitida milliy g'oyaga zid, ma'naviy qadriyatlarimizga putur yetkazadigan tashqi ta'sirlar asosan ommaviy madaniyatni tarqatishga bo'lgan intilishlar hosilasidir<sup>3</sup>. Ushbu fikrlarni qo'llab-quvvatlagan holda shuni ta'kidlash joizki, globallashtuv tezkor va shiddatli tashqi ta'sirlar davri bo'lishi bilan birga, muntazam ravishda tizimli olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy profilaktika va targ'ibot-tashviqot jarayonini ifoda etadi.

B. Umarov, Sh. Jabborovlarning fikricha, globallashtuvning ma'naviyatga salbiy ta'sirini bartaraf etish, ayniqsa, g'oyalar kurashi davrida yoshlar dunyoqarashining to'g'ri shakllanishini ta'minlash uchun milliy-ma'naviy qadriyatlarimiz tizimidagi barcha tarbiya elementlaridan oqilona foydalanishni yo'lga qo'yishimiz zarur. Ushbu fikrga qo'shimcha ravishda yana shuni ta'kidlash mumkinki, globallashtuv sharoitida nafaqat mavjud ma'naviy-ma'rifiy vositalardan foydalanish, balki ayni vaqtda ma'naviy tahdidlarning oldini olishga qaratilgan zamon talablariga mos keladigan yangi ma'rifiy-tarbiyaviy texnologiyalarni yaratishga alohida e'tiborni qaratish maqsadga muvofiq.

2 Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - Toshkent: Ma'naviyat, 2008. - 111 b.

3 Qarang: Gadjev K.S. Vvedeniye v geopolitiku. - M.: LOGOS, 2000. - 432 b.; Globalizatsiya i modelirovaniye sotsialnoy dinamiki. - M.: Institut sotsialnyx nauk, 2001. - 237 b.; Krylova I.A. Problema bezopasnosti Rossii v kontekste globalizatsii. - M.: Institut filosofii RAN, 2001. - 94 b.; Globalizatsiya i modelirovaniye sotsialnoy dinamiki. Otv. red. Nikolaev V.R. - M.: Institut sotsialnyx nauk, 2001. - 212 b.



Biroq, bizningcha, globallashuv mohiyatini uning jamiyat hayoti sohalarida in'ikos etish xususiyatlari bilan bog'liq ravishda tahlil etish maqsadga muvofiq. Chunki bunday yondashuv uning turli qirralarini alohida-alohida ochib berish orqali tadqiqot obyekti haqida umumiy fikr-mulohazalarni shakllantirishga imkon beradi.

Xususan, nisbatan keng tarqalgan nuqtai nazarga ko'ra, iqtisodiy globallashuv eng avvalo xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlarining chuqurlashib borishini anglatadi. Bunday integratsiya tovar va xizmatlarni ayirboshlash, ishchi kuchi va ishlab chiqarishning moddiy hamda ma'naviy omillarining erkin ko'chib yurishi, valyuta oqimlarining harakati kabi iqtisodiy munosabatlar shakllari orqali namoyon bo'ladi.

Boshqacha aytganda, iqtisodiy globallashuv deganda tovarlar, investitsiyalar, kreditlar, axborotlar oqimi, odamlar va g'oyalar almashinuvining kuchayishi hamda ularning tarqalishi ko'lamining kengayib borishida ifodalanadigan iqtisodiy erkinlik muhiti anglatiladi.

Tahlil muayyan hudud va mintaqada paydo bo'lgan siyosiy muammoning qisqa fursatda shu turdagi boshqa murakkabliklarning kelib chiqishiga sabab bo'lishi siyosiy sohada globallashuvning asosiy xususiyati ekanini ko'rsatadi. Shuningdek, mutaxassislar bu borada siyosiy institut va jarayonlarning dunyo bo'ylab o'zaro bog'liqlik darajasining o'sishi, o'z navbatida, global siyosiy makonning zaifligiga olib kelayotgani, shuning uchun bir nuqtadagi siyosiy beqaror vaziyat muqarrar ravishda dunyoning boshqa qismidagi siyosiy hayotga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi haqidagi xulosani bayon qiladilar.

Bundan tashqari, xalqaro siyosiy strukturalarning institutsionallashuvi jarayonining ham siyosiy global-lashuvning muhim xususiyatlaridan biri ekanini alohida ta'kidlash joiz<sup>2</sup>.

Ayni paytda, globallashuv madaniyat sohasida ham o'ziga xos tarzda namoyon bo'layotganini ta'kidlash joiz. Xususan, mutaxassislar madaniyat globallashuvini ikki fenomen bilan bog'liq holda olib qarashni istiqbolli, deb hisoblaydilar. Birinchisi, G'arb individualizmiga xos bo'lgan madaniy qadriyatlarning dunyo xalqlari hayotida tobora keng tarqalib borishida ifodalanadi. Ushbu qadriyatlar turli ijtimoiy institutlar tomonidan targ'ib-tashviq etiladi. Madaniyat globallashuvida ikkinchi fenomen global miqyosda G'arbga xos madaniyat elementlariga taqlid qilish tendensiyasining kuchayib borishi bilan bog'liq.<sup>4</sup>

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda globallashuv sharoitida tolerantlik madaniyatini shakllantirishning nazariy-metodologik asoslarini yoritish maqsadida ilmiy-pedagogik va falsafiy adabiyotlar tahlili, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, mantiqiy umumlashtirish hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlarni o'rganish metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, global-lashuv jarayonining yoshlar tolerantlik madaniyatiga ta'siri mavjud ilmiy manbalar asosida tahlil qilinib, olingan natijalar umumlashtirildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Umuman olganda, mavjud ilmiy qarashlar tahliliga tayangan holda globallashuvning mazmun-mohiyati haqida muayyan xulosalarni bayon etish mumkin. Birinchidan, globallashuv ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy tizim va ijtimoiy birliklarning intensiv integratsiyasi asosida kommunikatsiyaning innovatsion usul va vositalariga tayangan holda kechadigan kompleks xarakterga ega, muqarrar, ortga qaytmaydigan, obyektiv tarixiy jarayondir.

Ikkinchidan, jamiyat hayotining barcha sohalariga ta'sir ko'rsatish globallashuvning muhim xususiyatlaridan biridir. Zero, globallashuv xalqaro huquqiy normalarning qayta ko'rib chiqilishi, mintaq va hududlardagi iqtisodiy ukladlar karakterining o'zgarishi, mamlakat siyosiy hayotiga xalqaro tashkilotlar ta'sirining kuchayishi, turli madaniyat elementlarining o'zaro bir-biriga birikishi, muloqotning virtuallashib borishini anglatadi.

Sirasini aytganda, "globallashuv - bu avvalo hayot sur'atlarining beqiyos darajada tezlashuvi..." ekani haqidagi fikrdan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, real voqelik jahon sahnasidagi mavjud dinlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarning ham intensivlashib borayotganini ko'rsatmoqda. Bu esa tadqiqotimiz doirasida amalga oshiriladigan tahlillarga aynan ushbu metodologik yondashuv asos qilib olinishi maqsadga muvofiqligini anglatadi.

Bundan tashqari, hozirda global siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy va madaniy integratsiya jarayonlarida ishtirok etish darajasi dunyo mamlakatlari haqidagi muhim ko'rsatkichlarga aylanib bormoqda. Xususan, bu borada AQSHda nashr etiladigan "Foreign Policy" jurnalida globallashuvning umumjahon indeks ko'rsatkichlari (Foreign Policy Globalization Index) e'lon qilib borilishini ta'kidlash joiz. Boshqacha aytganda, ushbu ko'rsatkichlar sayyoramizdagi jipslik darajasining o'sish dinamikasi, uning barcha voqea-hodisalardan xabardor bo'lgan "yaxlit global qishloq"ga aylanish jarayonining borishi to'g'risidagi ekspertlar olib borgan tahlil natijalaridir.

<sup>4</sup> Qarang: Geogenezis: filosofiya i metodologiya geoekonomiki i geofinansov. Nauchnyy almanax vysokix gumanitarnyx texnologiy. / Pod red. Ivanovoy G.M.- M.: NAVIGUT, 2003. - 250 b.

Nashrda dunyo aholisining 84 foizi jamlangan, jahon mahsulotlarining 96 foizi ishlab chiqariladigan 62 ta eng globallashgan davlatlar nomi e'lon qilingan. Globallashuv indeksi to'rt yo'nalishga taqsimlanadigan 14 ta mezon asosida ishlab chiqilgani e'tiborga molik. Bulardan birinchisi, mamlakat xo'jaligida savdo-sotiq, investitsiya, kapitalning erkin harakati kabi omillarni hisobga olgan holda aniqlangan iqtisodiy integratsiya darajasi hisoblanadi. Ikkinchi yo'nalish shaxsiy aloqalarning rivojlanishini aks ettiradi va unda xalqaro turizm, telefon tarmog'ining sifati, pul o'tkazmalari, turli shakldagi nodavlat xarakteriga ega bo'lgan o'zaro munosabatlar asos qilib olinadi. Uchinchi yo'nalish internet tizimining rivojlanganiga doir fakt va raqamlarni o'z ichiga olsa, to'rtinchi yo'nalishda esa davlatning jahon ahamiyatiga molik siyosiy jarayonlarga jalb etilganlik darajasini xarakterlovchi jihatlari o'z aksini topadi. Bunda xalqaro tashkilotlar tarkibida ishtirok etish, xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilish, BMT tinchlikparvar kuchlari faoliyatiga hissa qo'shish kabi omillar e'tiborga olinadi.

Globallashuv indeksiga asos sifatida olinadigan ushbu mezonlar borasida bahs yuritish mumkin, albatta. Biroq ushbu loyiha tahlilchilari tomonidan ko'proq globallashgan mamlakatlarda boshqalarga nisbatan kishilarning o'rtacha umr kechirishi, o'rtacha yoshining katta ekani aniqlangan. Shuningdek, yana bir muhim jihati, indeks ko'rsatkichlari globallashuvning faqat amerikalashuvdan iborat jarayon emasligini anglab olish imkonini beradi.

Ma'lumotlarga ko'ra, dunyoda eng globallashgan mamlakat - bu Irlandiya hisoblanadi. Ushbu davlat so'nggi o'n yilliklarda o'zining butun dunyo bilan ham iqtisodiy, ham shaxsiy munosabatlar doirasida, shuningdek, investitsiyalarni jalb etish borasidagi aloqalarining o'ta intensivligiga ko'ra, globallashuv indeksi bo'yicha ketma-ket uchinchi marta peshqadamlikni qo'lga kiritmoqda.

Hozirgi kunda diniy omildan g'arazli geostrategik maqsadlarni amalga oshirish yo'lida foydalanishga urinish tobora avj olib borayotgani barchaga ma'lum. "Ana shunday sharoitda "teng huquqli va o'zaro foydali hamkorlik" tamoyili geostrategik manfaatlarni ro'yobga chiqarish va davlatlararo aloqalarni mustahkamlashning eng oqilona yo'li sifatida namoyon bo'ladi. Bu tamoyil turli mintaqalarda geostrategik manfaatlardagi uyg'unlikka erishish va jahon miqyosida taraqqiyotni ta'minlashga yordam beradi". Shu ma'noda ko'p konfessiyali davlatimiz tomonidan dinlararo muloqotni qo'llab-quvvatlash, diniy integratsiyani sog'lom yo'llar orqali ta'minlash borasida tarixiy ahamiyatga molik tashkiliy-siyosiy, huquqiy ishlar amalga oshirilayotgani murakkab globalashuv sharoitida ham mamlakatimiz diniy makoni barqarorligi asoslari mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda.

Umuman olganda, diniy omil bilan shartlangan geosiyosiy jarayonlar murakkab tizimni ifoda etadi. Mavjud ziddiyatlar, muammolar va murakkabliklarni bartaraf etish dunyo dinlari vakillari oldida turgan dolzarb vazifadir. Bizningcha, bu boradagi muammolarning oldini olishning eng samarali mexanizmi sifatida hozirda jahon dinlari sifatida e'tirof etiladigan konfessiyalarning boy tarixiy tajribasidan foydalanish zarur. Zero, ushbu dinlar tarixan turli ijtimoiy-siyosiy shart-sharoitlarda bir-biri bilan o'zaro munosabatda hayot kechirib keladi. Shunday ekan, ushbu yo'nalishdagi mavjud bilim va tajriba bugungi kun hamda dinlararo muloqotning porloq istiqboli uchun muhim omil bo'lishi tabiiydir.

Bunda obro'li, hurmatga loyiq diniy arboblari zimmasiga tarafdorlarni boshqa e'tiqoddagilarga nisbatan hurmat va bag'rikenglikka asoslangan munosabatda bo'lishga o'rgatishdek ulkan mas'uliyatli vazifa yuklanadi.

Birinchidan, bag'rikenglik madaniyati, eng avvalo, o'z dinini to'g'ri anglashdan boshlanadi. Zero, barcha jahon dinlari ezgulikka da'vat etadi. Aynan shu jihat globallashuv davri kishisi mentalitetini shakllantirishga asos bo'lmog'i zarur. Dinning chinakam ijtimoiy mohiyati, uning jamiyat hayotida tutgan o'rni va vazifalarini teran anglagan inson soxta g'oyalar, targ'ibotlar ta'siriga tushib qolmaydi.

Ikkinchidan, diniy tashkilotlar o'z faoliyatini dunyoviy asoslardagi huquqiy davlat konstitutsiyaviy makonida olib borayotganini doimo yodda tutishlari kerak. Diniy uyushma rahbarlari va diniy xizmatchilar boshqa dindagilarga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lishni faqatgina ta'kidlab qolmasdan, bu yo'nalishda amaliy harakatlarni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlashlari maqsadga muvofiq. Chunki bag'rikenglikni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash geokonfessional munosabatlar barqarorligining asosiy shartidir. Bag'rikenglikning dunyo davlatlari siyosatining muhim tamoyiliga aylanishi o'zga din va e'tiqoddagi guruhlarining geostrategik mazmundagi hududiy da'volari hamda bundan kelib chiqadigan pinhona konfessional ekspansiyasiga barham berishning samarali yo'lidir.

Shuningdek, O'zbekistonning obyektiv ravishda islom olamining ajralmas qismi ekani mamlakatimiz ravnaqi uchun ulkan ma'naviy-madaniy, ijtimoiy-strategik resursni ham ifodalaydi. Zero, islom omilining respublikamizning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi jarayonining chuqurlashuvi, shuningdek, ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishda tashqi geosiyosiy faoliyatni rivojlantirishda ulkan konstruktiv kuch sifatida chiqayotgani ham ana shu haqiqatni tasdiqlaydi.



## XULOSA VA TAKLIFLAR

Hozirgi davr inson huquq va manfaatlarining oliy demokratik qadriyat sifatida e'tirof etilgani, shu jumladan, vijdon erkinligini ta'minlashga qaratilgan hayotiy muhim tamoyillarning ustuvor bo'lib borayotgani bilan ahamiyatlidir. Deyarli barcha davlatlarda diniy e'tiqod huquqi qonunlar orqali mustahkamlanib, uni ro'yobga chiqarish uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Ijtimoiy guruh, xalq, millat va elatlar dini hamda madaniyatini asrab-avaylash, rivojlantirish dunyo davlatlari va xalqaro tashkilotlar doirasidagi asosiy siyosiy masalalar qatoridan joy oldi. Bir so'z bilan aytganda, hozirda diniy sohada barqarorlikni ta'minlash va mustahkamlash jamiyat hayotining strategik jihatdan muhim yo'nalishini tashkil etadi.

Shunday bo'lsa-da, din niqobi ostida faoliyat yuritishga urinayotgan kuchlar globallashuv sharoitining tezkorlik, ochiqlik, yuksak texnologik ta'minot va boshqa shu kabi xususiyatlaridan g'arazli maqsadlarini amalga oshirish yo'lida keng foydalanmoqdalar. Natijada begunoh insonlar qonining to'kilishi, diniy guruhlar huquqlarining poymol bo'lishi, terrorchilik harakatlarining sodir etilishi oqibatida global diniy makon barqarorligiga jiddiy putur yetmoqda. Bu esa, o'z navbatida, diniy sohadagi globallashuv jarayonlarini aniqlash, dinlararo, konfessiyalararo munosabatlar rivoji yo'lida to'siq bo'layotgan omillarni bartaraf etish bilan bog'liq hal etilishi zarur bo'lgan qator dolzarb muammo va vazifalar mavjudligini ko'rsatadi.

Mamlakatlardagi diniy vaziyatning xarakteri mintqa va global miqyosdagi konfessional jarayonlar xususiyatlarini belgilab beradi. Taraqqiyotning turli bosqichlarida bo'lgan dunyo davlatlarida diniy soha o'ziga xos tarzda tartibga solinadi va bunday sharoitda diniy yo'nalishlardagi xalqaro institutlarning muvofiqlashtiruvchilik funksiyasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Zero, diniy zaminda turli qarama-qarshilik va ziddiyatlardan manfaatdor kuchlar bor ekan, ularni sun'iy ravishda vujudga keltirish harakatlari ham to'xtamaydi va bu muammoni mahalliy ko'lamda hal etishning murakkabligi barchaga ayon. Shuning uchun bu jarayonda, bir tomondan, keng vakolatlar, yetarli moliyaviy, harbiy va mafkuraviy salohiyatga ega xalqaro tuzilmalar o'z faoliyati samaradorligini oshirib borishi, ikkinchi tomondan, davlatlar darajasida dinning ezgu mohiyatini yanada yoyishga qaratilgan ma'rifiy targ'ibot ishlarini muntazam takomillashtirib borish diniy globallashuv barqarorligining muhim shartidir.

Diniy globallashuv obyektiv va subyektiv omillar bilan shartlangan hodisadir. Ana shu ikki jihatning dialektik aloqadorligini teran anglash uning mohiyatini tushunishga va diniy sohadagi mavjud muammolarni hal etishning to'g'ri hamda samarali yo'llarini topishga imkon beradi. Har qanday ko'rinishdagi zo'ravonlik, terrorchilik va missionerlik harakatlari chinakam diniy e'tiqod egasi bo'lgan shaxs, ijtimoiy guruh va jamiyat manfaatlarining ifodasi bo'la olmaydi. Shu ma'noda diniy globallashuv faqatgina din niqobi ostidagi voqea-hodisalardan iborat jarayon emas. Zero, ijtimoiy subyektlar ma'naviy manfaatlarining sintezi bo'lgan diniy e'tiqod jamiyat ma'naviy-ruhiy muhitining sog'lomligi uchun muhim shart hisoblanadi. Konfessiyalararo munosabatlarni mamlakat ijtimoiy makoniga mos ravishda tartibga solib borish orqali diniy makon barqarorligi mustahkamlanib boradi.

Ta'lim tizimida diniy segment hajmining kengayib borayotgani diniy globallashuv jarayonlarining muhim yo'nalishini tashkil etadi. Buning obyektiv sabablari mavjud. Shulardan biri demokratik davlat va fuqarolik jamiyati sharoitida har tomonlama barkamol insonni shakllantirish uning sog'lom diniy va dunyoviy bilimlar bilan uyg'un holda qurollantirilishini taqozo etayotgani bilan ifodalanadi. Shuning uchun global miqyosda diniy va dunyoviy bilimlarni o'qitish hamda tadqiqotlarni olib borishga ixtisoslashgan akademik muassasalar sonining ortib borishi, diniy ta'lim me'yoriy-huquqiy bazasini mustahkamlashga qaratilgan ishlarning rivojlantirilayotgani ham ana shu muhim jihat bilan izohlanadi.

Hozirgi davrda diniy sohadagi tub o'zgarishlar asosan ikki omil bilan shartlangan, deyish mumkin. Birinchisi, dunyo miqyosida total tuzumlardan demokratik jamiyatni shakllantirishga o'tish va shu bilan birga vijdon erkinligining ta'minlanishi, ko'p konfessiyali aholining ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-madaniy hayotdagi faol ishtirokida namoyon bo'ladi. Zamonaviy jamiyatga xos ikkinchi omil esa an'ana va qadriyatlardagi tub o'zgarishlarga sabab bo'layotgan axborotlashuv jarayonlari bilan izohlanadi.

Axborot uzatishning ilg'or texnologiyalari rivojlanib borgani sari konkret dinlar tomonidan asosiy diqqat-e'tibor xabar va ma'lumotlarni qabul qilish hamda qayta ishlashga qaratilmoqda. Natijada diniy axborot va bilim yanada ommaboplashib, ularni o'zlashtirish osonlashmoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalari ko'p ming adadli bosma nashrlar, audio-video materiallar hamda internet sahifalari shaklida diniy targ'ibotning samarador usullariga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, dinning bunyodkor mazmunini keng targ'ib qilishda qulay, kamxarj, tezkor axborot texnologiyalaridan foydalanishni tizimli yo'lga qo'yish strategik ahamiyat kasb etadi.

Diniy g'oyalar bilan niqoblangan oqimlar faoliyati, missionerlik harakatlari ko'lamini va natijalari geosiyosiy nuqtai nazardan qaraganda aniq mazmun kasb etadi. Chunki ular davlatlar va manfaatdor tuzilmalarning geostrategik intilishlari ifodasidir. Shuning uchun ushbu faoliyat alohida mintqa va hududlardagi diniy omil bilan shartlangan geosiyosiy jarayonlarni tahlil qilishda katta ahamiyat kasb etadi.



Diniy munosabatlarning asosiy konfessional xulosalaridan yana biri shundaki, milliy davlatlar strategiyasi o'z ichiga jamiyat diniy makoni bilan munosabatlarni takomillashtirish, zarur bo'lsa, tubdan qayta ko'rib chiqish kabi jihatlarni olishini taqozo etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi - <http://www.un.org/russian/documen/declarat/htm>.
2. Deklaratsiya o globalnyx usiliyax po borbe s terrorizmom. Rezolyutsiya 1377 (2001), prinyataya Sovetom Bezopasnosti 12 noyabrya 2001 goda - <http://www.un.org/russian/documen/scresol/res2001/res1377.htm>.
3. Mejdunarodnyy pakt o grajdanskix i politicheskix pravax - <http://www.un.org/russian/documen/convents/pactpol.htm>.
4. Rekomendatsiya o razvitii i ispolzovanii mnogoyazychiya i vseobshchem dostupe k kiberprostranstvu, prinyataya Generalnoy konferensiyey Organizatsii Ob'yedinennyx Natsiy po voprosam obrazovaniya, nauki i kultury na yeye 32-y sessii, sostoyavsheysya v Parije, 2003 g. - <http://www.un.org/>.
5. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2013. - 40 b.
6. Ta'lim to'g'risida. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-y., 9-son, 225-moddasi.
7. Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida (yangi tahriri). O'zbekiston Respublikasining Qonuni. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998-y.
8. "Din sohasidagi ma'naviy-ma'rifiy, ta'lim ishlarini va faoliyatni takomillashtirishda ijtimoiy ko'mak va imtiyozlar berish to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. // "O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami" (matn davom etadi).
9. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. - Toshkent: O'zbekiston, 1996. - 364 b.
10. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-jild. - Toshkent: O'zbekiston, 1996. - 380 b.
11. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-jild. - Toshkent: O'zbekiston, 1996. - 366 b.
12. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan. 4-jild. - Toshkent: O'zbekiston, 1996. - 349 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №7(2)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.